

JAHON ANDOZALARI DARAJASIDA CHET TILLARINI IT TEXNOLOGIYALARI ORQALI O'RGATISH

G'aniyeva Nozanin G'ayratovna

Buxoro Davlat Pedagogika Instituti

Ingliz tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchi

Ne'matjonova Jasmina Jamshidovna

Buxoro Davlat Pedagogika Instituti Xorijiy til va adabiyoti ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: *chet tillarini o'rganish – bu shunchaki kommunikatsiya vositasi emas, balki aqliy, iqtisodiy va global integratsiya kalitidir. Lekin mavjud tizimlar jahon andozalariga javob beryaptimikan? Ushbu maqola bu savolga aniq va ravshan javob beradi. Maqola til o'rganishning subyektiv ya'ni o'qituvchidan tortib, obyektiv bo'lgan IT texnologiyalarining mukammal o'quv jarayoniga ko'rsatayotgan ta'sirini ilmiy asoslab beradi. Hayotning ajralmas bir qismiga aylanib borayotgan sun'iy intellekt mo'jizasi IT texnologiyalarining ta'lim sifatiga ko'rsatayotgan ta'siri va moslashuvchanlik xususiyatlarini tahlil qilgan holda O'zbekistonda bu tizimni joriy etish borasidagi qarashlarning yaxshi va yomon tomonlarini izohlaydi. Ushbu maqola zamonaviy pedagogika, texnologiya va iqtisodiy rivojlanish kesishmasida turgan hamda maqsadga xizmat qiluvchi tahlildir.*

Kalit so'zlar: *kommunikatsiya, global integratsiya, subyektiv va obyektiv o'rgatish tizimlari, IT texnologiyalar, zamonaviy pedagogika, iqtisodiy rivojlanish.*

KIRISH

Bugungi shiddatli taraqqiyot davrida ilm-fan va texnologiyalar tezkor rivojlanmoqda, bu esa ta'limga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. Ta'limning asosiy talabi - har bir fanni, ayniqsa chet tilini, talabalarga innovatsion texnologiyalar orqali yetkazishdir.

Globallashuv va internet hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Chet tilini o'rganishda internetdan foydalanish eng samarali usullardan biri: u orqali ona tilida so'zlashuvchilar bilan muloqot qilish, yozish malakasini elektron xatlar orqali oshirish mumkin.

Eng muhimi, ta'lim jarayoniga zamonaviy kommunikatsion texnologiyalarni to'g'ri va maqsadli kiritish, ulardan unumli foydalanish. Bu nafaqat o'quvchining chet tiliga bo'lgan qiziqishini oshiradi, balki o'qitish samaradorligini ham sezilarli darajada yaxshilaydi. Natijada, innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga bo'lgan talab ortadi. Ilg'or texnologiyalar rivojlanayotgan davrda, internet kabi kommunikatsion vositalardan foydalanish chet tili ta'limining samaradorligini oshirish va o'quvchilar qiziqishini kuchaytirish uchun asosiy va dolzarb yechim hisoblanadi. Chunki yangi davr bizdan har sohada yetuk, ilg'or va aqliy qobiliyati juda yuqori bo'lgan yoshlarni talab qilmoqda. Bugungi davr yoshlari esa bejizga zet-avlod deb atalmagan. Axborotlashgan jamiyatning farzandlari har qanday texnika bilan yaxshi til topishib ketayotganligining o'zi ham ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalarning ishtirokini talab qilib kelmoqda. Ayniqsa, chet tillarini o'qitish yoki o'rganish borasida mulohaza yuritar ekanmiz, zamonaviy innovatsiyalarni shunchaki chetlab o'tib ketolmaymiz.

Bu yondashuv shunchaki qiziqishni oshirishdan tashqari, natijani ham tubdan o'zgartiradi. Masalan, onlayn-platformalar (Duolingo, Coursera kabi) va Sun'iy Intellektga asoslangan vositalar (masalan, chatbotlar) talabaga tilni o'zlashtirish tezligi va uslubiga mos, shaxsiylashtirilgan ta'lim dasturini taklif qilish imkonini beradi. O'quvchilar endi «bir xil qolip»da o'qishga majbur emas. Innovatsion texnologiyalarning yana bir ulkan foydasi shundaki, ular tilni

o'rganishni faqat grammatika va lug'at yodlashdan chiqarib, uni madaniyatlararo muloqot maydoniga aylantiradi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va global videokonferensiya vositalari orqali talabalar o'rganilayotgan til egalari bilan bevosita aloqa o'rnatish imkoniga ega. Bu, nafaqat tilni tabiiy muhitga yaqinlashtiradi, balki o'quvchilarda empatiya, bag'rikenglik va turli madaniy stereotiplarni yengish ko'nikmalarini ham shakllantiradi. Chunki til bu shunchaki so'zlar yig'indisi emas, balki fikrlash va dunyoqarash kalitidir.

Biroq, innovatsiyalar faqat texnik jihatdan emas, balki pedagogik jihatdan ham o'zgarishni talab qiladi. O'qituvchining roli endi faqatgina ma'lumot uzatuvchi emas, balki o'quv jarayoni yo'naltiruvchisi, motivatori va kuchi bo'lishi kerak. U texnologiyalarni shunchaki qo'llashni emas, balki ularni o'quvchining shaxsiy ehtiyojlariga moslab, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratishi lozim. Shunday qilib, innovatsion texnologiyalardan foydalanish – bu ta'lim sifatini oshirishning eng yorqin yo'li. Ammo bu yo'l izchillik, sarmoya va o'qituvchilarning doimiy o'zgarishga tayyorligini talab qiladi.

Xulosa shuki, zamonaviy texnologiyalar chet tili ta'limini interfaol, moslashuvchan va amaliyotga yo'naltirilgan jarayonga aylantirmoqda. Bu esa talabalarga global dunyoning to'liq huquqli ishtirokchisi bo'lish uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarni beradi. Yangi davr talabalari tilni shunchaki o'rganmaydilar, balki uni hayotlarining bir qismiga aylantiradilar. Har bir til o'rganish jarayonida o'quvchidan sabr, matonat, iroda va qunt talab qiladi. Lekin shuni ham ta'kidlab o'tib ketishimiz joizki, til nafaqat o'rganayotgan talabadan, balki o'rgatayotgan pedagogdan ham xuddi shu kabi narsalarni talab qiladi. Demak

bundan ayonki, texnika va texnologiya mo'jizalari nafaqat o'quv jarayonini qiziq qilgan holda uni mazmunga boy qilyapti, shuningdek har bir o'quvchi va o'qituvchining hojatini chiqargan holda ularga juda katta ko'mak beryapti.

IT-ga asoslangan Innovatsion Ta'lim metodlari

1-Sun'iy intellekt va chat uchun mo'ljallangan botlar – talaba yoki o'quvchi yoshlarga mustaqil o'qish, izlanish va har qanday vaziyatda har qanday savoliga javob topish imkonini beradi.

2-Onlayn platformalar, xususan, **ZOOM**, **GOOGLE** yoki **WIKISPACE** – har bir til o'rganuvchi talabaga nafaqat individual o'qish, balki jamoaviy ta'lim tendensiyasini ham yaratishda qo'l keladi.

3-O'yinga asoslanib ta'lim olish uchun Kahoot yoki QUIZbot – bu orqali har bir chet madaniyatini va uning boy tilini o'zlashtirayotgan talaba o'z bilimini sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu usul ularda o'z kamchiliklarini ko'rsatish va aynan shu yetishmovchiliklarga yanada e'tibor qaratishlari uchun muhim tavsiyalarni beradi.

4-Kontentga asoslangan metodlar: YouTube, Netflix va Podcast servislari – ushbu innovatsion ijtimoiy tarmoqlar orqali har qanday vaziyatda turib ham video darslarni kuzatish, tushuncha hosil qilish, tushunmagan har qanday savolning javobini tez, oson va samarali topish mumkin.

5 – Yozma kommunikatsiyaga mo'ljallangan amaliyotlar: e-mail, bloglar va Telegram – bu ko'nikmalar eng mashhur va yosh qatlam vakillari orasida keng tanilgani boisidan ular uchun eng qulay va oson ilovalar hisoblanadi. Qolaversa, ko'pchilik til o'rganuvchilarning kundalik turmush tarzi, vaholanki, ularning ta'lim

jarayoni ham bu va bu kabi ilova yoki messengerlarga uzviy tarzda bog'lanib qolgan.

6-Interfaol o'qitish materiallaridan biri sanalgan E-BOOKS – ushbu tizim alohida metod sifatida kiritilmasa-da, ular innovatsion texnologiyalarga asoslangan ta'lim resursidir. Ayniqsa, chet tilini o'qitish tizimida ularning afzalliklari ancha ustun hisoblanadi. Zero, e-book tizimiga kiritilgan har bir mashqni yechgan talaba o'zi uchun zarur fikr-mulohaza ya'ni feedback olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, har qanday notanish so'zning ustiga bosib qo'yish bilangina ham uning talaffuzini ham uning ma'nosini tushunib olish mumkin.

Xulosa sifatida aytadigan bo'lsak, IT-ga asoslangan metodlar chet tili ta'limini «o'qishdan amaliyotga», «bir xillikdan moslashuvga» va «mahalliy sinfdan global muloqotga» olib o'tuvchi ko'prikdir. Ular ta'limni faqat bilim berishdan malaka va kompetensiya shakllantirishga o'tkazdi. Chet tili ta'limida IT texnologiyalarining joriy etilishi shunchaki o'qitish vositalarining o'zgarishi emas, balki ta'lim falsafasining tubdan o'zgarishidir. IT-metodlar chet tili darsini quruq grammatika sahifalaridan chiqarib, uni global, interfaol o'yinga aylantirdi. Natijada, talaba tilni «o'qimaydi», balki «yashaydi».

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1-Bekmuratova U. B. «Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish» mavzusida referat. Toshkent — 2012 yil.

2. Otaboyeva, M. P. Chet tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi .

3. N. Q. Xatamova, M.N.Mirzayeva. «INGLIZ TILI DARSLARIDA QO'LLANILADIGAN INTERFAOL USULLAR» (uslubiy qo'llanma), Navoiy, 2006.

4. O'.Hoshimov, I. Yoqubov. «INGLIZ TILI O'QITISH METODIKASI» (o'quv qo'llanma) Toshkent: «Sharq» nashriyoti, 2003.